

## TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY VA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS AHAMIYATI

**Nargiza Supxonovna Hakimova**

Buxoro davlat universiteti  
maktabgacha ta’lim kafedrası  
p.f.f.d (PhD)

**Avezova Surayyo Mirg‘olibovna**

Buxoro davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim va sport  
tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarbiya darslarida o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning o‘ziga xos ahamiyati va uni rivojlantirishning yosh bosqichlaridagi ahamiyati va undan foydalanishni shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, o‘yin, metod, yosh bosqichlari, pedagogik texnologiya, ijodiy o‘yin, ijtimoiy va huquqiy kompetensiya

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается особая значимость формирования социально-правовых компетенций у учащихся на занятиях по обучению и важность их развития на младших этапах и формирования их использования.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, игра, метод, возрастные этапы, педагогическая технология, творческая игра, социально-правовая компетентность

### ABSTRACT

In this article, the special importance of forming social and legal competences in students in education classes and the importance of its development at young stages and formation of its use are discussed.

**Key words:** education, education, game, method, age stages, pedagogical technology, creative game, social and legal competence

Shaxs hayoti bevosita jamiyatda, unda istiqomat qiladigan kishilar orasida kechadi. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi shaxslararo aloqalarning samarali kechishi kechirishi bevosita shaxsning ijtimoiy munosabatlar mazmuniga bog'liq. Ijtimoiy munosabatlar mazmuni esa o'z navbatida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning aniqlanganligi, jamiyat tomonidan qay darajada tan olinganligi hamda amaliy faoliyatda ularga rioya etilayotganligi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-huquqiy me'yorlar aynan shaxslararo munosabatlar negizi, unda aks etuvchi xususiyatlarga muvofiq shakllantiriladi. Garchi shunday bo'lsa-da, biroq hamisha ham ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati jamiyat a'zolari tomonidan birdek anglanmaydi. Kuzatishlarga ko'ra ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati ko'p hollarda huquqiy yo'nalish bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, aynan sud-huquq, soliq, bojxona yoki ichki ishlar tizimida faoliyat yuritayotgan shaxslar tomonidagina muayyan darajada anglanishi mumkin.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridayoq fuqarolik jamiyatini barpo etish ijtimoiy maqsad etib belgilanganligi inobatga olinsa, ijtimoiy-huquqiy me'yorlar, ularning mazmunidan barcha fuqarolar birdek xabardor bo'lishlari kerakligining dolzarbligi yanada ortadi. Shu bois fuqarolarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati bilan tanishtirish, ular to'g'risidagi ma'lumotlarning izchil berib borilishiga erishish jamiyat miqyosida hal qilinishi shart bo'lgan vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifaning ijobiy hal qilinishida tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega sub'ektlar qatorida ta'lim muassasalari ham alohida o'rin tutadi. Ta'lim muassasalari eng oddiy, shuningdek, ishlab chiqarish va kasbiy faoliyatni yo'lga qo'yish, inson huquqlarini muhofaza qilish darajasida aks etadigan ijtimoiy-huquqiy me'yorlardan o'quvchilarni xabardor qilish, ularning ahamiyati, rioya etish zaruriyatini anglatish imkoniyatiga ega. Mavjud imkoniyat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mazmuni bilan bosqichma-bosqich tanishtirib borilishini tahminlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabida ham o'quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirib borish imkoniyati mavjud. Bunda o'quvchilarga beriladigan ma'lumotlar ularning kundalik hayotlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar, shaxslararo o'zaro muloqotga asoslanishi lozim. Ya'ni o'quvchilarning ota-onalar, oila a'zolari, ular mansub bo'lgan mikromuhitdagi sub'ektlar va tarbiyachilar bilan munosabatlari bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar misolida ochib beriladi. Tarbiyachi o'quvchilar e'tiborini ular tomonidan tashkil etilayotgan xatti-harakatlarining salbiy yoki ijobiy mazmunga egaligini ochib berish (nima yaxshi-yu, nima yomonligini, qanday harakat to'g'ri-yu, qaysi harakatlar noto'g'riligini ko'rsatish)ga tortish asosida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini ochib beradi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilarni ijtimoiy-huquqiy meʼyorlar bilan tanishtirishda alohida oʻrin tutadi. Maktabda pedagogik-psixologik, shuningdek, umumiy ijtimoiy bilimlarni maxsus oʻzlashtirgan mutaxassislar - oʻqituvchilarning faoliyat yuritishlari oʻquvchilar tomonidan ijtimoiy-huquqiy meʼyorlar mohiyatini toʻgʻri anglash, ularning ijtimoiy, maʼnaviy-axloqiy, huquqiy ahamiyatini tushunish, shuningdek, mazkur meʼyorlarga kundalik faoliyatda rioya etish koʻnikmalarining izchil oʻzlashtirilishini taʼminlaydi.

Boshlangʻich sinflarda taʼlim olayotgan oʻquvchilari ijtimoiy va huquqiy meʼyorlar, ularning mazmuni toʻgʻrisidagi dastlabki eng oddiy tushunchalarni oila hamda umumiy oʻrta taʼlim maktabida oʻzlashtiradilar. Biroq, boshlangʻich taʼlim bosqichi oʻquvchilar hayotida oʻziga xos davr sanaladi. Bola oʻzining jismoniy va ruhiy kamolotiga koʻra taʼlim olishga toʻla tayyor boʻladi. Asosiy hayot tarzi sifatida oʻyin faoliyati oʻrnini oʻqish faoliyati egallaydi. Oʻqish faoliyati oʻquvchilarning ruhiy jihatdan yanada takomillashishlariga, xarakter xususiyatlarining shakllanishiga kuchli taʼsir etadi. Bilim olish va atrof-muhitni oʻrganishga boʻlgan qiziqish kuchayadi. Mazkur hodisalarning barchasi oʻquvchilarga ijtimoiy-huquqiy meʼyorlar mohiyatini yetarli darajada anglashlariga yordam beradi. Bilishga nisbatan ham hissiy yondashish boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻziga xos xususiyatlaridan biri sifatida namoyon boʻladi. Shu bois ularni ijtimoiy va huquqiy meʼyorlar bilan tanishtirishda berilayotgan maʼlumotlarni qiziqarli tarzda bayon etish, imkon qadar hayotiy misollar yordamida obrazli talqin qilish ijobiy natijalarga qoʻlga kirishga yordam beradi. His-tuygʻularini ifodalashga qoʻzgʻaluvchanlik xosligi, shu bilan birga tengdoshlariga taqlid qilishning kuchliligi bois ijtimoiy hamda huquqiy meʼyorlarga amal qilish yoki amal qilmaslik holatlarini ular xatti-harakatlari, xulq-atvori, odatlariga misolida yoritish orqali tasavvurlarining yetarli boʻlishi erishish imkoniyati yuzaga keladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining fikrlashlarida ham obrazlilik ustun boʻlganligi sababli ular oʻqituvchi tomonidan berilayotgan tushunchalarning maʼnosidan koʻra obrazi (shakli yoki tasviri)ga eʼtiborni qaratadilar. Bu esa oʻz-oʻzidan ijtimoiy-huquqiy meʼyorlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni koʻrgazmali vositalar yordamida yetkazish berish zarurligini anglatadi. Oʻqituvchi nutqining obrazlilik, hissiyotga boyligi va maʼlumotlarning qiziqarli ekanligi oʻquvchilarning bilish faoliyatini faol tashkil etishga xizmat qiladi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ijtimoiy-huquqiy meʼyorlarga hurmat hissini tarbiyalash oʻquv va maʼnaviy-maʼrifiy ishlarning muhim tarkibiy qismidir. Oʻquv ishlari tarkibida ijtimoiy-huquqiy meʼyorlarning oʻrganilishi majburiylik kasb etadi. Boshlangʻich sinflarda oʻqitiladigan "Oʻqish", "Tarbiya" va "Tabiatshunoslik" kabi oʻquv fanlari negizida ham oʻquvchilar ijtimoiy - huquqiy meʼyorlar, qisman esa huquqiy meʼyorlar mohiyati bilan tanishib boradilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Борытко, Н. М. Пространство воспитания: образ бытия / Н. М. Борытко. - Волгоград: Перемена, 2000.- 255с.
2. Бракина, С.В. Формирование правовых представлений младших школьников во внеурочной деятельности:, дис. ...канд. пед. наук [Электронный ресурс]/С.В:Брыкина.-RL<http://www.lawlibrary.ru/author.ihgf>.
3. Вербицкий, Н; П. Правовое воспитание молодежи / Н. П. Вербицкий. Минск: Нар/ асвета, 1991. - 87 с.
4. Вопленко, Н. Н. Правосознание и правовая культура / Н. Н. Вопленко. - Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2000.
5. Hakimova Nargiza Supkhonovna. Opportunities for Using Developing Educational Technologies in the Primary Class Journal of Ethics and Diversity in International Communication | e-ISSN: 2792-4017 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 3 Issue: 2.
6. Suphanovna kh. n. improving the mechanisms for the formation of socio-legal competencies of students in the lessons of education in primary school //web of scholars: multidimensional research journal. – 2022. – т. 1. – №. 7. – с. 25-28.
7. Hakimova Nargiza Suphonovna. Formation of social -legal competences of students in primary class education lessons. Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 2 february 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz
8. Supkhanovna H. N. Formation of Socio-Legal Competences in Primary Class Students //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 247- 249.
9. Supxonovna H. N. Social Competencies of Primary School Students //American journal of science and learning for development. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 110- 112.
10. Hakimova, N. (2022). Роль социально-правовых норм в жизни учащихся начальных классов. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 25(25).
11. Gaybullayevna D. N., Supxonovna H. N. Forming a sense of respect for the students in primary school educational lessons //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2022. – Т. 9. – С. 194-198.